1.14-rasmida pylonkali geliomeva quritish moslamasi quyosh energiyasidan foydalangan holda meva va uzumni quritishga muljallangan. Moslama sharqdan g'arbg'a parallel ravishda joylashgan, janubga yo'naltirilgan (20° - 25°). Quritilgan mahsulot (uzum, olxo'ri, o'rik, tug'ralgan olma, pomidor va boshqalar) qog'ozga yotqizilgan [36; 134-139-b.].

Plyonkali quyosh kollektori Vilyams nomidagi VNIIkormov tomonidan ishlab chiqilgan. Pichan, o't va don urug'lari, tamaki va mevalarni quritish uchun mo'ljallangan. Qora pylonkali trubka kattaroq diametrli shaffof pylonkali trubaga joylashtirilgan silindrsimon modullar bilan qayta ishlatalishi mumkin bo'lgan ramkasiz yig'ma konstruksiyali kollektordan iborat. Bu bir uchidan distribyutorga, ikkinchi uchidan qabul qiluvchiga ulangan 10 silindrsimon modul. Kollektorga havo yetkazib berish 4,5 kVt quvvatga ega dvigatel bilan alohida ventelyator tomonidan amalgalash mumkin [36; 134-139-b.].




1.14 - rasm. Pylonkali geliomeva quritish moslamasi

Quyilgan havo modullar bo'ylab tarqaladi, u yerda quyosh nurlari bilan isitiladigan qora pylonkani har ikki tomonidan isitiladi va qabul qiluvchi bo'shliq orqali faol shamollatish moslamasining qabul qilish moslamasiga yuboriladi va atmosfera havosi bilan aralashtirib, skirdanining podstansiya kanaliga kiradi. Quyoshli kunda kollektor havoni $20\text{-}35^{\circ}\text{C}$ gacha isitadi, shu bilan birga havoning nisbiy namligini 50-70 % dan 30-40 % gacha kamaytiradi. Yomg'irsiz bulutli ob-

havo sharoitida, tarqoq nurlanish ta'siri ostida, kollektordagi havo 6-8 °C ga suhladi va uning nisbiy namligi 15-30 % ga kamayadi [36; 134-139-b.].

1.15-rasmda pichanni quritish uchun quyosh qurilmasi VNIPTIMESX (Rusiya qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash va lektrlashtirish ilmiy-tadqiqot va loyihalash texnologik instituti) tomonidan ishlab chiqilgan. Pichan va quritishda faol shamollatish orqali pichanni quritganda havoni isitish uchun ijallangan. Bundan tashqari, o't va don urug'lari, makkajo'xori donalari va bo'yoqar yog'i urug'ini quritishda ham foydalanish mumkin. O'qli shamollatish ventelyatori 1 va shamollatiladigan plynokali kollektor, shu jumladan tarqatish 2 va yig'ish 4 havo quvurlari va issiqlik qabul qilgich 3 bo'limlaridan iborat. Tarqatish va yig'ish havo kanallari bir-birining o'rnini bosadi va har biri 2 qismdan iborat. Chetki seksiyalarda tuynuklar mavjud, ularga 5 chiqish quvurlari shaktilrilgan [73; 209-b., 74; 41-b.].



1 – ventelyator; 2 – tarqatish kanali; 3 – issiqlik qabul qilgich bo'limi;

4 – yig'ish kanali; 5 – chiqish trubkasi; 6 – qora polietilen plynoka;


7, 8 – shaffof himoya qobiqlari

1.15-rasm. VNIPTIMESX pichanni quritish uchun quyosh qurilmasi sxemasi

Issiqlik qabul qiluvchi seksiya 3 W-to'lkinsimon qora plastik plyonka 6, pastki 7 va shaffof himoya qobiqlari 8 bilan tepaliklar bo'ylab bog'langan. Issiqlik qabul qiluvchilarning qismlari prefektiv va tarqatish quvurlariga o'tish ramkalari bilan ulangan. Atmosfera havosi ventelyator tomonidan tarqatish quvuriga quyiladi va tuynuklar orqali issiqlik qabul qilgich qismlariga kiradi. Muayyan bosimga erishilganda, kollektor qismlari to'g'rilanib ish holatiga keltiriladi. Issiqlik qabul qiluvchi kollektoring issiqlik qabul qilish yuzasida havo isitiladi va qurvur liniyasining chiqish quvurlari orqali UXS-16 ventelyatorining kiritish teshigiga yetkazib beriladi, u yerda kanalga quyilgan atmosfera havosi bilan aralashtiriladi [73; 209-b., 74; 41-b.].

Samarqand qishloq xo'jaligi instituti olimlari Sh.Suvankulov va Z.Abduganiyevlar qorako'lcha tersini quritish uchun texnologik liniya ishlab chiqishgan (1.16 – 1.17 – rasmlar). Ular taklif qilgan texnologik sxemada ikkita zona ajratilgan: *a* - havo isitish uchun qurilmalarni joylashtirish zonasasi; *b* - quritilgan xom ashyoni joylashtirish zonasasi. Havoni isitish moslamalari sifatida elektr qizdirgich 6 va geliohavoqizdirgich 8 va issiqlik almashtirgich 9 ishlataligan.


Quritiladigan material (qorako'lcha terilari) aravalarga joylashtiriladi 1, liniyada, ya'ni xona 4 ichida aylanma harakat qiluvchi aravachali transporter 14, so'ruvchi 2 va 3 haydovchi havo kanallari mavjud. Havo ta'minoti va almashinuvi 5 va 7 ventelyatorlar tomonidan amalga oshiriladi. Quritishdan oldin va keyin havo harorati va namlikni 12 va 13 nazorat qilish asboblari bilan amalga oshiriladi. Kiradigan toza va chiqindi havoni yetkazib berishni tartibga solish 10 va 11 rostlanadigan zadvijkalar orqali amalga oshiriladi. Xom ashyoni quritish zonasida aravachalarni harakatnadirish uchun transporter ishlataladi. Terilar aravachalardagi kassetalarga joylashtiriladi. Kasseta 1 ramka bo'lib, unga mato 2 tortilgan ramka. Nam teri 3 quritishdan oldin ushbu matoga yotqiziladi. Kassetadagi pastki mato 4 ga yotqizilgan teri 3, ustiga o'rnatilgan yuqorigi mato 2 bilan ham o'zaro ta'sir qiladi [8; 27-28-b.].



1 – aravacha; 2 – so’rvuchi havo kanallari; 3 – haydovchi havo kanallari;
 4 – quritish xonasi; 5 – so’rvuchi ventelyator; 6 – elektrokalarifer;
 7 – kalarifer ventilyatori; 8 – geliohavoqizdirgich; 9 – issiqlik almashtirgich;
 10, 11 – rostlanadigan zadvijkalar; 12, 13 – harorat va namlikni nazorat qilish
 asboblari; 14 – aravachali transporter

1.16- rasm. Qorako'lchani quritish qurilmasining texnologik sxemasi

Ushbu yotqizish bilan teri 2 va 4 matolar o’rtasida joylashtiriladi. Isteadingi matolarga et va jun qatlami bilan yopishtiriladi. Bu quritish paytida terini to’g’rilashga yordam beradi va namlikni teridan atrofdagi havoga o’tkazish hatoitlarini yaxshilaydi [8; 27-28-b.].



1,5 - ramka; 2 - yuqorigi mato; 3 - teri; 4 - pastki mato.

1.17- rasm. Qorako'lcha terisin kuritish kassetasining sxemasi

Ushbu qorako'lcha terilarini quritish qurilmasini faqat statsionar qo’zi yiyish punktlarida ishlatalish mumkin, bundan tashqari u qorako'lcha terilari

quritishga mo'ljallangan, ko'p metall va elektr energiyasi sarflaydi. Ushbu gelioqurilmalar qorako'l terilarini quritishga mo'ljallanmagan.

Qorako'l sifatining nuqsonlar hisobiga pasayishi zararining umumiyligi indisi anchagina iqtisodiy yo'qotishga olib keladi. Oxirgi yillarda teri sifatining stabillashuvini hisobga olib, quritishda harorat-namlikni optimallashtirish tendensiyasi belgilanmoqda. Shu yo'llardan biri terilarni quritish agentining nisbatan katta bo'lmanagan haroratda va havo solishtirma sarfi kam bo'lgan mayin tartibda quritish. Qorako'lni quritish parametrlarni asoslashda quritkich qurilmalarida namlikni haydash kinetikasi va quritishning xususiyatlariga diqqat e'tibor qaratiladi. Qorako'lni quritish jarayonini optimallashtirishning yana bir kriteriyasi solishtirma energiya sarfi bo'lib, u to'g'ri va yordamchi energiya sarflarining bir birlik quritilayotgan ashyoga nisbati bilan aniqlanadi. Buning uchun quritish jarayonida muqobil energiya manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'rta Osiyo va Qozog'istonda qorako'l terisini quritishda ko'p hollarda past potensialli quyosh energiyasidan foydalanuvchi quritkichlar qo'llaniladi. Afsuski ularni qo'llashda ba'zi chegaranishlar mavjud bo'lib, ular qoniqarsiz ob-havo sharoitidir. Shu sababli ob-havoning noqulay kelishimi hisobga oluvchi gelioquritkichlar yaratish maqsadga muvofiq [41; 81-83-b.].

1.5. Terilarni quritish bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarning qisqacha tahlili

Har xil turdag'i hom ashyoni konvektiv issiqlik uzatish usuli bilan quritish jarayonlarini tadbiq qilish natijalari S.V.Korobka, B.G.Goyfman, V.K.Sokolov, A.A.Andryuxin va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Bu ishlar eksperimental xarakterga ega va ularning natijalari faqat ma'lum quritkich qurilmalarida qo'llanishi mumkin [36; 134-139-b.].

Qorako'l terilarni bevosita quritish nuqtai nazardan quritish qurilmalarini loyihalashga talablar ishlab chiqishni L.S.Seitbekov, G.E.Nepsha, V.P.Muradov va P.V.Baydyuk bilan A.R.Radjabovlar ko'rib chiqishgan. V.P.Muradov teri materialidan havo oqimi filtratsiya jarayonini filtrlash nazariyasini qo'llab tadbiq

quritish jarayonining bunday tadqiq yo'li ko'proq teri sanoatiga qo'shiladi [28; № 2., 34; 55-56-b., 118.].

A.R.Radjabov qorako'lni quritish jarayonini quritish agentining terining quritishga ruxsat etilgan haroratidan ikki baravar yuqori haroratda quritish jarayoni bo'yicha izlanishlar olib borgan tavsiyalar ishlab chiqqan. Ular bosqichli quritish tartibini tavsiya etgan. Birinchi tartibli bosqichda teri yuqori haroratlari quritish agenti bilan puflashni amalga oshiriladi, ikkinchi tartibli bosqichda teri sovuq havo amalini bilan puflanadi. Bunday tavsiyalar aniq issiqlik texnikasi uchun qiziqish yuzg'otadi, lekin amaliyotda qo'llanishi muammoli. Sababi olingan terlar sifati yuqori emas [118; 25-b.].

A.Yu.Kraynov terini quritishda qiziqarli natijalar olgan. Ularda quritish jarayonida namlikka nisbatan yuzaning kirishishi, teri qalinligi va namlikning materialini bilan bog'lanishi orasidagi bog'lanishlar keltirib chiqarilgan [81; 48-b.].

Z.Abduganiyev qorako'lcha terisini quritishni mexanizatsiyalash bo'yicha quritishda borilgan izlanishlarida quritish agentini qizdirish uchun kombinatsiyalangan quritish manbasidan foydalanishni ko'zda tutiladi. Quritish jarayoni to'xtovsiz yuzlashtirilma harakatlanadigan aravachali konveyer ishlab chiqqan. Konveyr bino ichida joylashgan, geliohavoqizdirgichlar bino tomiga joylashtirilgan, bino ichida elektrokalorifer o'rnatilgan. Quritish kompleksi juda qimmatga tushadi, bino shuqt so'yish mavsumida ishlatiladi, shuning uchun xarajatlarni qoplash muammoli [45; 52-55-b., 8; 27-28-b.].

Sh.I.Ibragimov, Sh.K.Suvankulov, M.Kaliaskarovlarning ishlarida terini quritish tartiblarining ashyoning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri tahlillari keltirilgan [46; 43-b., 79; 67-b., 80; 24-b.].

Barcha izlanishlarda quritish jarayoni terining yuzasi qisqarishi muqarrarligi tiziri ta'kidlanadi. Ammo turli mualliflar quritish jarayonidagi teri yuzasi kirishish o'lehamlarini turlicha ko'rsatadi.

B.A Kuznetsov tomonidan qorako'l terilarga ishlov berish alohida diqqatga ozovordir, unda ishlov berilgan terilarda ma'lum texnologik usullarda teri yuzasi quruq tuzlanganga nisbatan 102-104 % gacha oshgan [129; 463-b.].

I.N.Dyachkov bo'yicha, issiqlik tashuvchining past haroratlarida uzog muddatli quritishda teri kirishishi kamayadi. K.YA. Xamidbayev bo'yicha teri o'Ichamlari birlamchi ishlov berishda boshlang'ich yuzaga nisbatan 83,4 % gacha kamayadi, namokop tuzlashda 74,0 % gacha qisqaradi. Ishlov berish va bo'yashdan so'ng birlamchi qiymatlarga nisbatan yuza 85,1 % ga o'sishi ko'rsatiladi. O'xshash natijalarini M.D.Zakirov va boshqalar olishgan. Lekin olingan natijalarning har xilligi mustaqil ravishda quritish agenti tasnifi bo'yichizlanishlar olib borishni taqozo etadi [78; 216-b., 111; 24-b.].

II BOB. QORAKO'L TERILARNING QURITISH SHAROITLARI, TERILARNING O'LCHAMLARI VA FIZIK-MEXANIK XOS SALARI

2.1. Qorako'lchilik xo'jaliklari joylashgan mintaqalarining
muddagi ob havo tahlili va quyosh energiyasidan quritishda foydalanish
ishkoniyatlari

Samarqand viloyati AGMS Dahbet, MS Payshanba, MS Poyariq,
Nurobod, Nurobod gidrometereologik stansiyalardan fevral-mart oylari uchun
ko'satsatichchlarni (2.1-rasm) tahlil qilindi. Dahbit gidrometeostansiya tahlil
grafiklarda keltirilgan.

O'zbekistonning dasht tekisliklarida quyoshning nur sochishi umumiy
da'monligi bir yilda 4455-4475 saatni tashkil etadi. Aslida yillik quyosh nurlar
tahlisi bu yerlarda 3000-3100 saatni tashkil etadi, bu mumkin bo'lganining 65-
70% ni tushil etadi. Quyoshning yig'indi radiatsiyasi issiqlik miqdori 140-160
yil yoki 586-670,4 kJoyl/yil oraliq'ida bo'ladi (7-ilova 2.1-2.2-jadvallar).

O'rtacha havo harorati ($^{\circ}$ C)




a)

Eng baland havo harorati ($^{\circ}$ C)



b)

Eng past havo harorati ($^{\circ}$ C)




v)

Yog'ingarchilik miqdori (mm)



g)



d)

a – havo haroratning o'rtachasi; b – havo haroratining eng balandi; v – havo haroratining eng pasti; g – yog'ingarchilik miqdori; d – nisbiy namlik o'zgarishi

2.1-rasm. Dahbet gidromeostansiyadan olingen atmosfera havosi ko'rsatkichlari o'zgarishi grafiklari

2.2. Qorako'l terilarining o'Ichamlari

Qorako'l teri sifatini asosan junning teri yuzasida joylashishi, jun uzunligi, jingalaklarining mayinligi, jozibadorligi va yaltirokligi belgilaydi. Shu bilan birga qorako'l terini ko'p yillar davomida xizmat kilish uchun juni va terisi orasidagi mustahkamligi muhimdir.

Qorako'l terilarning **kattaligi** - tovar qiymatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Qorako'l terilarning kattaligi teri to'qimasining massasi, pishiqligi, qalinligi, jingalagining kattaligi, jun qoplaming xossalari va boshqalar mazkur ko'rsatkich bilan ma'lum darajada bog'liqdir [30; 254-b.].

Qorako'l terilarining o'Ichamlari. Sh.Suvankulov va Z.Abduganiyevlar [45-46] olib borgan tadqiqotlarga ko'ra qorako'lcha terilarining kattaligini planimetrik yordamida o'Ichanganda (boshi, bo'yni, oyoqlari va dumgi hisobga kirmaydi) 28 % xatoga yo'l qo'yilgan, (ko'payish tomonga) standart yuzasini santimetrli lineyka bilan o'Ichanganda esa xato 18-23 % ga, mashtabli taxtada o'Ichanganda esa 28-30 % ni tashkil etgan.

Yugoridagilarni hisobga olgan holda qorako'l terilarining kattaligini lineyka
bonida o'lchadik.

Tahlil qilish uchun o'rtacha 10 ta har xil o'lchamdagи qorako'l terilar olindi
(2.1-jadval). Tahlil qilish uchun olingan terilar vazni 228-545 gr ni , yuzasi 875-
1656 sm^2 (terilar eni 25-36 sm, bo'yи 35-46 sm)ni tashkil qildi.

2.1-jadval


Quritishdan oldin terilar yuzasi, vazni va teri qalinligi

Guruh	Bo'yи, sm	Eni, sm	Yuzasi, sm^2	Vazni, gr	Teri qalinligi, mm
Variant 1	41	34	1394	402	1,03
Variant 2	38	31	1178	259	1,12
Variant 3	42	35	1470	585	1,15
Variant 4	39	32	1248	394	0,78
Variant 5	40	28	1120	264	1,05
Variant 6	41	30	1230	304	1,10
Variant 7	46	25	1150	350	1,05
Variant 8	36	26	936	245	0,89
Variant 9	46	36	1656	428	1,13
Variant 10	35	25	875	228	0,78

Quritishda optimal variantni tanlashda jarayonning davomiyligi, terining
turishishi, quritishdan oldin va keyin terining og'irligi va terining o'rtacha qalinligi
ham bog'liq holda amalga oshiriladi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, terilarning o'rtacha yuzasi
 1120 sm^2 ni, nam fizik vazni 346 gr ni, teri qalinligi esa 1 mm ni tashkil etdi.

Qorako'l terilarining vazni. Terilarning vazni xom ashyo tovar
qiyomatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Teri vazni uning yuzasi kattaligiga,
to'qimasining (go'shtpardaning) qalinligiga, uning namligiga, jun tolalari



d)

a – havo haroratning o'rtachasi; b – havo haroratining eng balandi; v – havo haroratining eng pasti; g – yog'ingarchilik miqdori; d – nisbiy namlik o'zgarishi

2.1-rasm. Dahbet gidromeostansiyadan olingan atmosfera havosi ko'rsatkichlari o'zgarishi grafiklari

2.2. Qorako'l terilarining o'chamlari

Qorako'l teri sifatini asosan junning teri yuzasida joylashishi, jun uzunligi, jingalaklarining mayinligi, jozibadorligi va yaltirokligi belgilaydi. Shu bilan birga qorako'l terini ko'p yillar davomida xizmat kilish uchun juni va terisi orasidagi mustahkamligi muhimdir.

Qorako'l terilarning kattaligi - tovar qiymatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Qorako'l terilarning kattaligi teri to'qimasining massasi, pishiqligi, qalinligi, jingalagining kattaligi, jun qoplamingiz xossalari va boshqalar mazkur ko'rsatkich bilan ma'lum darajada bog'liqdir [30; 254-b.].

Qorako'l terilarining o'chamlari. Sh.Suvankulov va Z.Abduganiyevlar [45-46] olib borgan tadqiqotlarga ko'ra qorako'lcha terilarining kattaligini planimetrik yordamida o'changanda (boshi, bo'yni, oyoqlari va dumgi hisobga kirmaydi) 28 % xatoga yo'l qo'yilgan, (ko'payish tomonga) standart yuzasini santimetrli lineyka bilan o'changanda esa xato 18-23 % ga, mashtabli taxtada o'changanda esa 28-30 % ni tashkil etgan.

Yuzoridagilarni hisobga olgan holda qorako'l terilarining kattaligini lineyka olindida o'lchadik.

Tahlil qilish uchun o'rtacha 10 ta har xil o'lchamdag'i qorako'l terilar olindi (2.1-jadval). Tahlil qilish uchun olingan terilar vazni 228-545 gr ni, yuzasi 875-
1656 mm^2 (terilar eni 25-36 sm, bo'yisi 35-46 sm)ni tashkil qildi.

2.1-jadval

Quritishdan oldin terilar yuzasi, vazni va teri qalinligi

Guruh	Bo'yisi, sm	Eni, sm	Yuzasi, mm^2	Vazni, gr	Teri qalinligi, mm
Variant 1	41	34	1394	402	1,03
Variant 2	38	31	1178	259	1,12
Variant 3	42	35	1470	585	1,15
Variant 4	39	32	1248	394	0,78
Variant 5	40	28	1120	264	1,05
Variant 6	41	30	1230	304	1,10
Variant 7	46	25	1150	350	1,05
Variant 8	36	26	936	245	0,89
Variant 9	46	36	1656	428	1,13
Variant 10	35	25	875	228	0,78

Quritishda optimal variantni tanlashda jarayonning davomiyligi, terining turishishi, quritishdan oldin va keyin terining og'irligi va terining o'rtacha qalinligi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, terilarning o'rtacha yuzasi 1375 mm^2 ni, nam fizik vazni 346 gr ni, teri qalinligi esa 1 mm ni tashkil etdi.

Qorako'l terilarining vazni. Terilarning vazni xom ashyo tovar qaynatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Teri vazni uning yuzasi kattaligiga, to'qimasining (go'shtpardanining) qalinligiga, uning namligiga, jun tolalari

qoplaming qalinligiga, uzunligi va namligiga, teri to'qimasidagi erigan tuzlarga va aralashmalar mavjud bo'lishiga, shuningdek, terining kelib chiqishiga bog'liq bo'ladi.

Qorako'l terilar vazni texnik tarozida 1 g ga qadar aniqlikda o'lchanadi. Qorako'l qo'zilarining yangi shilib olingan terisi o'z vaznidan tashqari (teri to'qimasi va jun tolalari vazni), hujayralar va to'qima tarkibiga kiruvchi muayyan miqdordagi suvga ham ega bo'ladi .

Qorako'l terilar vazni xom ashyoning turiga, yuzasining kattaligiga, rangiga, qalinligi va go'shtpardasining (mag'zining) qurchligiga, jun tola qoplaming qalinligi va balandligiga, go'shtpardasi va tolalarining namligiga, konservalangan xom ashyoning holatiga, unda begona aralashmalar bor-yo'qligiga bog'liq [29; 334-b., 30; 234-b., 31; 408-b., 45; 38-b.].

2.3. Qorako'l terilarining fizik-mexanik xossalari

Ma'lumki, Qorako'l terilarning fizik-mexanik xossalari terini gelioquritgichlarda quritish sifati, unumi, energiya hajmiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi iqlim sharoitlari sifatlari teri yetishtirish imkoniyatini yaratadi. Energiya va resurstejamkor gelioquritgichlarni qo'llab, kam vaqt va energiya sarflagan holda terini quritishda hududning tuproq-iqlim sharoiti va terining fizik-mexanik xossalarini o'rganmasdan erishib bo'lmaydi.

MDH davlatlarida terilarning fizik-mexanik xossalarini L.S.Seitbekov, I.N.Dyachkov, M.D.Zakirov, K.Ya.Xamidbayev, V.P.Muradov, P.V.Bayduyl, A.R.Radjabov, A.Yu.Kraynov, B.A.Kuznetsov, M.Kaliaskarov, G.E.Nepsho, Sh.I.Ibragimov va boshqa olimlar o'rganishgan [28; № 2., 34; 55-56-b., 118. 81, 48-b. 45; 8; 27-28-b. 46; 79; 67-b., 80; 24-b. 129; 463-b.].

O'zbekistonda qorako'lcha terining fizik-mexanik xossalari Sh.Suvankulov va Z.Abduganiyevlar o'rganishgan [45; 58-b., 46; 65-67-b.]. Ularning qorako'lcha terisining fizik-mexanik xossalarini o'rganishda maxsus ishqalanish

asbobidan foydalanishgan. Z.Abduganiyev [46; 65-67-b.] qorako'lcha terisi konstruksion material bo'yicha harakat tenglamasini tuzib, ishqalanish koeffitsentini aniqlash uchun qo'yidagi ifodani olishgan:

$$f = \frac{2L(m_{rp} + m_{narp})}{m_{narp} + g\tau_k^2} - \frac{m_{rp}}{m_{narp}}. \quad (2.1)$$

m_{rp} – harakat hosil qiluvchi yuk vazni, kg;

m_{narp} – namunani yuklanish yuki vazni, kg;

L – namunani siljish masofasi, m;

t – siljish vaqt, s.

Ushbu (2.1) formula bo'yicha siljishda ishqalanish koeffitsentini aniqlashlashda bir qator noaniqliklar bor, jumladan namunani siljish masofasi va siljish vaqtini aniq keltirilmagan. Siljish masofasi va siljish vaqtini ishqalanish koeffitsentiga bog'likligi asoslanmagan. Shuning uchun yuqorida keltirilgan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Yuqorida keltirilgan izlanishlardan ko'rinib turibdiki, qorako'l terisining fizik-mexanik xossalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shularni hisobga olgan holda, GOST 20915-2011 "Ispytaniya selskoxozyaystvennoy texniki. Metody i priezileniya usloviy ispytaniy" bo'yicha terini ba'zi bir fizik-mexanik xossalarni o'rgandik [56].

Qorako'l terisining fizik-mexanik xossalarni 2.2 va 2.3-rasmida keltirilgung maxsus ishqalanish asbobidan foydalanib aniqladik.

Ishqalanish koeffitsentini qo'yidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:

$$f = \frac{F}{P}, \quad (2.2)$$


F / dinamik ishqalanish koeffitsenti;

P – korobkani barqaror harakat qilgandagi ishqalanish kuchi, N;

P' – normal bosim kuchi, N.



2.2-rasm. Ishqalanish koefitsintini aniqlash asbobining umumiy ko‘rinishi



1 – tayanch doska; 2 – teri bo‘yicha ishqalanish koefitsenti aniqlanadigan material; 3 – nakladka; 4 – namuna; 5 – yuk; 6 – ip; 7 – blok; 8 – yuk


2.3-rasm. Ishqalanish koefitsintini aniqlash asbobining sxemasi

Tajribalarning natijalari 2.2-2.6-jadvallar va 2.4-2.8-rasmlarda keltirilgan.

2.2-2.3-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar va 2.4-2.5-rasmlardagi grafiklardan ko‘rinib turibdiki po‘lat sirtning 3, 6 va 8 mm diametrлари hamda uyalar enining 2, 4 va 7 mm qiymatlarida terining namligini 10 foizdan 50 foizgacha ortishi bilan terining et tomonini po‘lat sirt bo‘yicha ishqalanish koefitsenti to‘g‘ri chiziq qonuniyati bo‘yicha ortadi.

Qorako'l terisi et tomonining teshik diametri har xil bo'lgan po'lat sirt bilan ishqalanish koeffitsentini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari

Terining namligi (W), %	Teri et tomonining po'lat sirt bo'yicha ishqalanish koeffitsenti, f		
	teshik diametri (d), mm		
	3	6	8
10	0,21	0,26	0,29
20	0,22	0,27	0,30
30	0,24	0,28	0,31
40	0,24	0,30	0,32
50	0,25	0,31	0,34



1-3-mos ravishda teshik diametri (d) 3, 6 va 8 mm bo'lganda

2.4-rasm. Qorako'l terisi et tomonining po'lat sirt bilan ishqalanish koeffitsenti (f) ni namlik (W) bog'lik ravishda o'zgarish grafiklari

2.4-rasmida tasvirlangan to'g'ri chiziqlarni eng kichik kvadratlar usuli [135; 111-b., 136; 120-135-b.] bilan aniqlangan quyidagi empirik formulalar orqali modelash mumkin:

teshik diametri 3 mm bo‘lganda

$$y = 0,00105x + 0,20250 \quad (R^2 = 0,94231); \quad (2.3)$$

teshik diametri 6 mm bo‘lganda

$$y = 0,00125x + 0,24710 \quad (R^2 = 0,98693); \quad (2.4)$$

teshik diametri 8 mm bo‘lganda

$$y = 0,0012x + 0,2796 \quad (R^2 = 0,9882). \quad (2.5)$$

2.3-jadval

Qorako‘l terisi et tomonining uyalar o‘lchamlari har xil bo‘lgan po‘lat sirt bilan ishqalanish koeffitsentini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari

Terining namligi, %	Teri et tomonining po‘lat sirt bo‘yicha ishqalanish koeffitsenti, <i>f</i>		
	uyalar o‘lchamlari (<i>b</i>), mm		
	3	6	8
10	0,22	0,24	0,26
20	0,23	0,25	0,28
30	0,24	0,27	0,3
40	0,25	0,27	0,30
50	0,26	0,30	0,32

2.5-rasmda tasvirlangan to‘g‘ri chiziqlarni eng kichik kvadratlar usuli [135; 98-111-b., 136; 120-135-b.] bilan aniqlangan quyidagi empirik formulalar orqali ifodalash mumkin:

uyalar o‘lchamlari 2 mm bo‘lganda


$$y = 0,00080x + 0,21980 \quad (R^2 = 0,98039); \quad (2.6)$$

uyalar o‘lchamlari 4 mm bo‘lganda

$$y = 0,00126x + 0,22940 \quad (R^2 = 0,98928); \quad (2.7)$$

uyalar o‘lchamlari 4 mm bo‘lganda

$$y = 0,0014x + 0,2537 \quad (R^2 = 0,9826). \quad (2.8)$$




1-3-mos ravishda uyalar o'lchamlari (b) 2, 4 va 7 mm bo'lganda
2.5-rasm. Qorako'l terisi et tomonining po'lat sirt bilan ishqalanish
koeffitsenti (f) ni namlik (W) bog'lik ravishda o'zgarish grafigi

2.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar va 2.6-rasmdagi grafiklarga asosan
terining namligini 10 foizdan 50 foizgacha ortishi bilan teri et tomonining
gigroskopik (kanop, polivinilxlorid, zig'irpoya tolasi va paxta gazlamasi) mato
bilan ishqalanish koeffitsenti to'g'ri chiziq qonuniyati bo'yicha ortadi.

2.4-jadval

Qorako'l terisi et tomonining gigroskopik (kanop va polivinilxlorid) bilan
ishqalanish koeffitsentini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari

Terining namligi, %	Teri et tomonining po'lat sirt bo'yicha ishqalanish	
	kanop	polivinilxlorid
10	0,22	0,38
20	0,23	0,41
30	0,27	0,43
40	0,28	0,44
50	0,31	0,48



2.6-rasm. Gigroskopik (qop-qanor) mato bilan

ishqalanish koefitsenti (f) ning namlik (W) ga bo'lgan et tomonining
2.6-rasmida tasvirlangan to'g'ri chiziqlarni eng kichik ravishda o'zgarishi
98-111-b., 136; 120-135-b.] bilan an'glangan quyidagi kvadratlar usuli [135]
ifodalash mumkin:

kanop bo'lganda

$$y = 0,00222x^2 + 0,19700 \quad (R^2 = 0,8191); \quad (2.9)$$

polivinilxlorid bo'lganda


$$y = 0,00226x^2 + 0,36160 \quad (R^2 = 0,5878). \quad (2.10)$$

2.5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar va 2.7-rasmiga asosan
teriga normal bosimni 0,4 MPa dan 0,5 MPa gacha ortish
qop-qanor matosi (kanop, polivinilxlorid, zig'irpoya
bo'yicha ishqalanish koefitsenti to'g'ri chiziq qonuniyat
eng katta ishqalanish koefitsenti paxta qizlamasi bo'yicha
bo'yicha ortadi. Bunda

2.5-jadval

Qorako'l terisi et tomonining gigroskopik (qop-qanor) mato bilan ishqalanish koeffitsentini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari

Normal bosim, MPa	Teri et tomonining gigroskopik (qop-qanor) mato bo'yicha ishqalanish koeffitsenti, f			
	kanop	polivinil- xlorid	zig'irpoya tolasi	paxta gazlamasi
0,2	0,39	0,36	0,37	0,46
0,4	0,41	0,39	0,42	0,48
0,6	0,44	0,40	0,46	0,5
0,8	0,46	0,41	0,51	0,51
1	0,49	0,43	0,54	0,52



1 – kanop; 2 – polivinilxlorid; 3 – zig'irpoya tolasi; 4 – paxta gazlamasi

7.1.3. Qorako'l terisi et qatlaming gigroskopik (qop-qanor) matosi bilan ishqalanish koeffitsenti (f) ning normal bosim (P) ga bog'lik ravishda o'zgarishi

2.7-rasmda tasvirlangan to‘g‘ri chiziqlarni eng kichik kvadratlar usuli [135; 98-111-b., 136; 120-135-b.] bilan aniqlangan quyidagi empirik formulalar orqali ifodalash mumkin:

kanop bo‘lganda

$$y = 0,1225x + 0,3673 \quad (R^2 = 0,9836); \quad (2.11)$$

polivinilxlorid bo‘lganda

$$y = 0,08x + 0,353 \quad (R^2 = 0,9588); \quad (2.12)$$

zig‘irpoya tolasi bo‘lganda

$$y = 0,219x + 0,3324 \quad (R^2 = 0,9992); \quad (2.13)$$

paxta gazlamasi bo‘lganda


$$y = 0,08x + 0,447 \quad (R^2 = 0,9846). \quad (2.14)$$

2.8-rasmda keltirilgan grafiklarga asosan terini et qatlaming metall sirt bo‘yicha aloqada bo‘lish vaqt 20 sek dan 280 sek gacha ortishi bilan terining et tomonini teshikli po‘lat material va metall panjara bo‘yicha ishqalanish koeffitsentini to‘g‘ri chiziq qonuniyati bo‘yicha ortadi. Bunda teri et qatlaming metall sirt buyicha aloqada bo‘lish vaqtiga ishqalanish koeffitsentiga sezilarli ta’sir qiladi.

2.6-jadval

Teri et tomonining metall sirt bilan aloqada bo‘lish vaqtiga bog‘liq ishqalanish koeffitsentini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari

Aloqada bo‘lish vaqtি, sek	Teri et tomonining metall sirt bilan aloqada bo‘lish vaqtiga bog‘liq ishqalanish koeffitsenti, f	
	teshikli po‘lat material	metall panjara
20	0,25	0,27
100	0,26	0,29
180	0,27	0,30
260	0,28	0,30
340	0,29	0,32



1 – teshikli po'lat material; 2 – metall panjara

2.8-rasm. Teri et qatlaming metall sirt buyicha

ishqalanish koefitsenti (f) ning aloqada bo'lish vaqtiga (t) ga
bog'liq ravishda o'zgarishi

2.8-rasmida tasvirlangan to'g'ri chiziqlarni eng kichik kvadratlar usuli [135;
131-136; 120-135-b.] bilan aniqlangan quyidagi empirik formulalar orqali
ishlashing mumkin:

teshikli po'lat material bo'yicha

$$y = 0,00012x + 0,25023 \quad (R^2 = 0,97970); \quad (2.15)$$

metall panjara bo'yicha

$$y = 0,00012x + 0,27380 \quad (R^2 = 0,95880). \quad (2.16)$$

Olingan regressiya tenglamalari tahlillari asosida ishqalanish koefitsentining eng katta qiymatlari qop-qanor matolariga to'g'ri kelishi aniqlandi (tig'lepoyin tolasi, paxta gazlamasi va kanop). Binobarin ushbu matolarni qarako'l teri et qatlamiga yopishtirish uchun ishlatalish kerak.

Qorako'l terisini yarim silindrik tokchasi tayanch sirti sifatida yoyishda uyalar o'lchami $b=2$ mm bo'lgan po'lat panjara yoki teshik sirtli po'lat plastinalar qo'llash maqsadga muvofiq. Ularning siljishda ishqalanish koeffitsenti yuqori.

Tajribalar ko'rsatishicha, teriga bosim qiymati hamda terining konstruksion materialiga tegish davomiyligi vaqtida ishqalanish koeffitsentiga sezilarli ta'sir etadi. Shu sababli yarim silindrik tokchaga joylashtirishdan oldin to'liq tegishi uchun matoni teriga yaxshilab siqib yopishtirish kerak. Qorako'l terisini yarim silindrik tokchaga yoyishda terini 60-80 N kuch bilan oldindan tarang tortish kerak. Bu terining tayanch sirtga eng yaxshi yopishish imkonini beradi va quritish jaryonida teri kirishishini kamaytiradi.

III BOB. QORAKO'L TERISINI GELIOQURITKICH QURILMASI

V ANING PARAMETRLARINI NAZARIY ASOSLASH

3.1. Qorako'l terisini gelioquritkich qurilmasi konstruksiyasi


Ko'rileyotgan mintaqalarda qo'zilarni so'yish va qorako'l teri tayyorlash mavsumi 15 fevral va mart oyi to'lig'icha o'rtacha harorat 9,5 °C ni, o'rtacha eng havo havo harorati 16 °C ni, o'rtacha eng past harorat 4,8 °C ni tashkil etadi. O'rtacha nisbiy namlik 64,8 % ni, shamolning o'rtacha va maksimal tezligi 2,5 va 0,7 m/sek ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar qorako'l teri tayyorlash mavsumida quyoshi energiyasidan foydaladigan gelioquritkichlarni ishlatalish imkonini beradi [11, №1-83-b.]. Bu mavsumda yetarli namlik va teri quritish uchun kerakli bo'lgan borotni ta'minlash imkonini bo'ladi, bu esa o'z navbatida sifatli quritilgan teri xom sabyo inyyorlashga imkon beradi.

Shu bilan birgalikda terining hajmiy kirishishining oldini olish bo'yicha quritish jarayonida mexanik usulda ularni tortib turish maqsadga muvofiq ekanligi shabiyot tahlillarida aniqlandi. Demak, gelioquritkichning ushbu shartlarni hisobga olgan konstruksiyasini yaratish va nazariy-eksperimental tadqiqotlar o'tkazish kerak bo'ladi. Bu muammoning yechilishi dolzarb masala hisoblanadi.

O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning tahlili, terilarni quritish texnologiyalari va qurilmalariga qo'yiladigan zootexnika talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining № FAP 02060-2022 y. raqamli modelga olingan patent [22] bilan himoyalangan (1-ilova) qorako'l terisini gelioquritkich qurilmasining konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (3.1-rasm).

Teri jun qatlami 11 tarafi bilan tayanch tirqishlarining g'adir-budur sirti 4 bilan, tirqishli yarim silindrik tayanch 3 ga tekislab yotqizilib jun qatlami tarafi bilan fiksatsiyalanadi, terining et qatlami 10 esa, tuklari ikki tarafga yo'nalgan stereoskopik mato 5 bilan zich siqiladi va unga yopishib et qatlami tarafi bilan fiksatsiyalanadi, bog'lash taxtasi 6, prujina 7, qoziqlarni fiksatsiyalaydigan qator unghali yog'och taxta 8, taglik rama 1 ning, qoziqlari 2 yordamida tirqishli yarim silindrik tayanch 3 ga mahkamlanadi, polietilen plyonkani tutib turuvchi yarim

silindrik sim asos 9 li polietilen pylonka 12 bilan qoplanadi.



- 1 – taglik rama; 2 – qoziq; 3 – tirqishli yarim silindrik tayanch; 4 – tayanch tirqishlarining g‘adir-budur sirti; 5 – tukli gigroskopik mato; 6 – gigroskopik matoni ko‘ndalang bog‘lash taxtasi; 7 – prujina; 8 – qoziqlarni fiksatsiyalaydigan qator tirqishli yog‘och taxta; 9 – polietilen pylonkani tutib turuvchi yarim silindrik sim asos; 10 – terining et qatlami; 11 – terming jun qatlami; 12 – polietilen pylonka.
 a – ko‘ndalang kesimi ko‘rinishi; b – ustidan ko‘rinishi

3.1-rasm. Qorako‘l terisini quritish tokchali gelioquritkich

Teri et qatlami 10 ni, prujina 8 ta’sirida taranglashgan gigroskopik mato 5 ning markazdan qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan tuklari terini zinchiqib, doimo ikki tarafga qarab tekislab turadi. Jun qatlami esa, yarim silindrik tayanch 3 tirqishlarining g‘adir-budur sirti 4 ga tekislab yotqizilib siljishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Gelioquritkich polietilen pylonkani tutib turuvchi yarim silindrik sim asos 9 li polietilen pylonka 12 bilan qoplanadi va taglik rama 1 ning, qoziqlari 2 yordamida tirqishli yarim silindrik tayanch 3 ga mahkamlanadi va janub qaratilgan holda 35° qilib joylashtiriladi, agarda zarurat tug‘ilsa qurilmani kerakli tarafga qaratish mumkin (3.1a-rasm).


Qorako‘l terisi et qatlami 10 tomonidan 5 tukli gigroskopik mato bilan qoplanadi, mato tuklari markazdan bir biriga qarama-qarshi yo‘nalgan. Tukli gigroskopik mato 5, qoziqlarni fiksatsiyalaydigan qator tirqishli yog‘och taxta 8 va

janiga 7 bilan tarang tortiladi.

Qoziqlarni fiksatsiyalaydigan qator tirkishli yog' och taxta 8 taglik rama 1 ga
yoki 3 bilan fiksatsiyalanadi (mahkamlanadi). Pat tuklari markazdan qarama-
qoshli yo'nalgan gigroskopik mato 5 tarang tortilishi natijasida, qorako'l terisi 11
joni qoplamasи tomoni bilan teshikli metall yarim silindrik tayanch 3 ning shaxmat
tortibida joylashgan teshikli va g'adir-budur yuzasiga qisiladi, gigroskopik mato 5
tukli yuzasi bilan teri et qatlami 10 ga yopishib, siqiladi. Matoning ustki
qismidan ma'lum masofada (6-10 sm) qoplangan pylonkani tutib turuvchi yarim
silindrik sim asos (karkas) 9 lar ramaga parallel joylashgan planka 12 ning maxsus
teshiklariga o'rnatiladi (3.1b-rasm).

Quyosh nurlari (radiatsiyasi) polietilen pylonkadan o'tib sinadi va
ultrabinafsha nurlar issiqlik nuriga aylanadi havoni va matoni, demak terini
qizdiradi. Shu bilan birgalikda matodan aks etib qaytgan issiqlik nurlari
pylonkadan qaytib chiqmaydi, natijada "parnik" samarasи sodir bo'ladi.

Ishlab chiqilgan gelioquritkich janubga nisbatan ma'lum burchakka qiya
o'matilganligi sababli quyosh nurlari (radiatsiyasi) ta'sirida matodan bug'langan
namlik aralashmali havo zichliklar farqi bo'yicha qiyalikning yuqori qismiga
harakatlanadi. Natijada pylonka tagi va mato usti oralig'ida suv bug'iga to'yingan
havo aralashmasi matodan bug'langan namlikni o'rab turuvchi muhitga olib
chiqadi. Gelioquritkichning umumiyo ko'rinishi 3.2-rasmida keltirilgan.



1 – umumiyo rama; 2 – sinch (karkas); 3 – polietilen pylonka

3.2-rasm. Gelioquritkichning umumiyo ko'rinishi

Gelioquritkich rama va sinch joylashtiriladigan umumiy rama 1 ga ega bo'lib, rama transporter ko'rakchalariga o'rnatiladi.

3.2. Qorako'l terisini quritish qurilmasining fiksatsiyalash moslamasi


Qorako'l terisini quritishda hajmiy kirishishning oldini olish va terining barcha qismlari tekis qurishini ta'minlovchi yarim silindrik tokchaga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining foydali modelga patenti olindi [22].

Terini quritish uchun ramaga qotirilgan yarim silindr shaklida bukilgan teshikli metall plastina va plastinaga terini yoyib, ustiga yopilgan matoni mahkamlash taxtasi fiksatsiyalash vositasi yordamida o'rnatiladi. Teriga yopiladigan mato gigroskopik materialdan tayyorlangan. Shu bilan birga fiksatsiyalash jahozi plastinasining ikkala tomoniga qotirilgan. Ramaga o'rnatilgan fiksatsiyalash qoziqlari kiradigan qator teshikli uzunchoq taxtachadagi qator teshiklar terining tekis tarangligini ta'minlaydi. 3.3-rasmda teri quritish tokchasi tasvirlangan [22].

Teri quritish tokchasi rama 1, qoziqlar 2, shaxmat tartibli joylashgan teshiklari va g'adir-budurlikli yarim silindrik metall tokcha 3, tuklari markazidan bir biriga qarama - qarshi yo'nalgan gigroskopik mato 4, qattiq tasmalar 5, prujinalar 6, uzun taxtacha 7, teshiklari 8, teri et qatlami 10 va teri jun qoplama 11 dan iborat [22].

Qorako'l teri et qatlami 10 tomonidan tukli gigroskopik mato 4 bilan qoplanadi, mato tuklari markazidan bir biriga qarama-qarshi yo'nalgan. Gigroskopik mato 4 bikr tasmalar 5 va prujina 6 bilan tarang tortiladi.

Qator teshikli uzun taxtachalar 7 rama 1 ga qoziq 2 yordamida fiksatsiyalanadi (mahkamlanadi). Tuklari markazdan qarama-qarshi tomonga yo'nalgan gigroskopik mato 4 tarang tortilishi natijasida qorako'l terisi 9 junli qoplamasini tomoni 11 bilan teshikli metall yarim silindrik tokcha 3 ning shaxmat tartibida joylashgan teshikli va g'adir-budur yuzasiga siqiladi, gigroskopik mato 4 esa tukli yuzasi bilan teri et qatlami 10 ga yopishib siqadi va terining doimo tashqi tomonga silab tekislاب silliqlanishini ta'minlaydi.




1 – rasm. 2 – qoziq; 3 – shaxmat tartibli joylashgan teshikli va g‘adir-budurlikli sirt yuzali yarim silindrik metall tokcha; 4 – gigroskopik mato; 5 – qattiq tasma; 6 – prujina; 7 – qator teshikli uzun taxtacha; 8 – uzun taxtacha teshiklari; 9 – qorilishdigan qorako‘l terisi; 10 – teri et qatlami; 11 – qorako‘l teri junli qoplamasи

3.3-rasm. Qorako‘l terisini quritish tokchasi

3.4-rasmda esa gigroskopik matoni fiksatsiyalash va taranglashtirish qorilmasi tasvirlangan. Teri 9 da va ayniqsa teri et qatlami 10 da qolgan yog‘lar, usulda va namlik patli gigroskopik matoga singadi, qurish jarayonida tuklar terini qorishlab hajmiy kirishishni kamaytiradi. G‘adir-budur sirtli yarim silindrik metall tokcha 3 qorako‘l terisi 9 ning junli qoplamasи tomoni 11 tomonidan qiladi, shu bilan terining maksimal sirt yuzasini saqlaydi. Bu esa o‘z surʼatida teri yuzasini kamayishini minimallashtiradi va qorako‘l terining jadal va o‘sish labi qurishiga imkon beradi.

Yuqoridagilar terini quritishda sirt yuzasi hajmiy kirishishini kamaytiradi va o‘sish labi oshiradi. Bunday tokchaga qo‘yishda teri doimiy cho‘zilgan holatda bo‘lib, panjara (teshilgan plastinka) ga va tokchaga nisbatan ma’lum kuch bilan qoriladi. Quritish jarayonida terining tarangligi deyarli o‘zgarishsiz qoladi, bu maydonini saqlab qolishga yordam beradi va hajmiy kirishishning oldini oladi.



4 – gyroscopic mato; 5 – qattiq tasma; 6 – prujina; 7 – qator
teshikli uzun taxtacha; 8 – uzun taxtacha teshiklari

3.4-rasm. Gyroskopik matoni fiksatsiyalash va taranglashtirish qurilmasi

Yarim silindrsimon tokchalaridan foydalanishning ikkinchi ijobiy omili teridan atrof-muhitga namlik almashinishi yaxshilashidir. Gyroskopik material bilan havoning namlik almashinishi jadallligi va mato tuklarining teri qatlami qalinligiga qisman kirib borishi tufayli namlikning diffuziyalanishi va jadal bug‘lanishiga yordam beradi. Terining boshqa usullarga qaraganda quritish jarayonida bir tekisda qizdirilganligi va bug‘lanish yuzasining gyroskopik mato iplarining diametriga mos ravishda ortishi sababli terining alohida qismlarining harorati bir xilligi ta’minlanadi va jarayon yanada barqaror va jadal amalga oshiriladi.

3.3. Qorako‘l terisi gelioquritgich qurilmasi parametrlarini nazariy asoslash

Qurilmaning asosiy parametrlariga qo‘yidagilar kiradi: yarim silindrik tokchaning radiusi R va uzunligi L ; g‘adir-budurlikli yarim silindrik metall tokcha chetki qismlaridagi gyroskopik matoni taranglovchi prujinaning ta’sir kuchi va


tokchaga o'tkazilgan urinma oralig'idagi qiyalik burchagi α_{kr} ; ip diametri d ; iplar

3.5-rasmga asosan yarim silindr tokchaning radiusi R ni qo'yidagi ifoda
aniqlaymiz [45; 38-b., 46; 45-48-b.].

$$R \geq K_r \frac{L_{teri}}{\pi - 2\alpha_{kr}}, \quad (3.1)$$

Ushbu K_r – tokcha enini teri eniga nisbatini hisobga oluvchi koefisiyent, $K=1,6$;
 B_{max} – terining maksimal eni, sm; α_{kr} – prujinaning ta'sir kuchi va tokchaga
otkazilgan urinma oralig'idagi qiyalik burchagi, °.

Agar $B_{max}=40$ sm, $\alpha_{kr}=0,174-0,21$ rad ($10-12^\circ$) bo'lsa, (3.1) ifodaga asosan
ravishda $R=22,93-23,51$ sm ga teng bo'ladi. Qabul qilamiz $R=25$ sm.



**3.5-rasm. Yarim silindrik tokchaning radiusini aniqlash
hisobiy sxemasi**


Yarim silindrik tokchaning uzunligi L unda ikkita kichik terini joylashishi
hajridan aniqlaymiz

$$L \geq 2L_{lmin} + \delta_l + 2\delta_1, \quad (3.2)$$

Ushbu δ_l – qo'shni terilar orasidagi masofa, sm; δ_l – terilar chetgi qism bilan
tokcha cheti qirrasi orasidagi masofa, sm; L_{lmin} – kichik terining uzunigi, sm;

Agar $L_{lmin}=35$ sm, $\delta_l=10$ sm va $\delta_l=15$ sm bo'lsa, (3.2) ifodaga asosan qabul
qilamiz. $L \geq 110$ sm.

Sh.Suvankulov, Z.Abduganiyevlar olib borgan tadqiqotlarda namlikni haydash jarayonini 3.6-rasmdagi sxema asosida modellashtirish uchun Unga asosan teri et qatlami shartli ravishda D diametrli sharlar sirti deb qalinadi. Terining qurishi natijasida sharlar sirti diametri d gacha kamayadi. Bu holat teri qatlaming qalinligini boshlang'ich β_n dan qatlarning oxirgi qalinligiga gacha β_k olib keladi [45; 55-58-b., 46; 64-65-b.].



3.6 - rasm. Teri et qatlaming namsizlanishing sxemasi [46; 64-65-b.]

Yarim silindrik tokchalarga yopishtirilgan terilarning quriganda bu masofa kichik qiymatlarga o'zgaradi va bu qurigan terilarning birlamchi o'lchamlarini saqlash imkonini beradi. Bu jarayonda deformatsiya asosan teri qalinligi bo'yicha amalga oshadi. Teri et qatlami qalinligi qurish jarayonida katta qiymatlarda o'zgaradi [45; 58-62-b., 46; 64-65-b.].

Sharlar sirtining tegish nuqtalari orasidagi masofalar quyidagicha bo'ladi [45; 58-62-b., 46; 64-65-b.]:

$$A = D, \quad (3.3)$$


Terini tayanch sirtga bir qatlam qilib yopishtirib quritish terining notekis deformatsiyalanishiga olib keladi. Unda alohida olingan qatlamlarida kuchlanish yuzaga kelib, teri burushishi kabi salbiy holatlar kuzatiladi [45; 58-62-b., 46; 64-65-b.].

Yarim silindr tokchada matoni qo'llashning yana bir ijobiy samarasи teri et qatlami sirt yuzasi kengayishi hisobiga bug'lanish sirti yuzasi kattaradi. 3.7-rasmda teri et qatlaming qop matolari iplari bilan tegishi keltirilgan. Namlik o'tkazishning eng yaxshi sharoiti bir biriga yaqin bo'lgan mato iplarining katta

bu qismi d_n ga to'g'ri keladi. Qop matolar orqali bug'lanish sirti maydoni bug'lanish yuzasi oshishiga proporsional oshadi. Solishtirma bug'lanish yuzasi quyidagicha topiladi [38; 127-129-b.]

$$L_{ncl} = N_n \pi d_n, \quad (3.4)$$

Teri elementar qism birligidagi qop matosidagi iplar soni, dona.



Versasm. Teri et qatlamini matoga yopishtirishda namlik bug'lanish yuzasining kengayishi hisobiy sxemasi [45; 58-62-b., 46; 64-65-b.]

Ning qiymati iplarning o'zaro to'qilish zichligiga bog'liq va uning tizimiy qiymati quyidagi ifodadan topiladi [46; 64-65-b.]:

$$N_n = \frac{L}{(d_H + d_n)}, \text{ dona.} \quad (3.5)$$

unda L – tahlil qilinadigan qism yuzasi (1225 sm^2) ;

d_n – alohida olingan iplar orasidagi masofa, uni qabul qilamiz:

$$d_n = (0,3-0,4)d_u, \text{ m.}$$

(3.5) ifodadan

$$d_n = \frac{L - N_n d_u}{N_n}, \text{ m.} \quad (3.6)$$

Tahlillar asosida ip diametri $d_u=0,06-0,08 \text{ mm}$ bo'lishi aniqlandi, u bug'lanishning eng katta sirt yuzasini ta'minlaydi, lekin bu iplardan tayyorlangan mato narxi qimmat, shu sababli katta diametrli ($d_u=0,9-1,1 \text{ mm}$) iplardan tayyorlanadigan matolardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Alohida olingan iplar orasidagi masofani ip diametriga bog'liq holda aniqlaymiz:

ip diametri $d_n=0,06-0,08$ mm

$$d_n=0,3d_n=0,3 \cdot 0,06=0,018, \text{ m},$$

$$d_n=0,4d_n=0,3 \cdot 0,08=0,032, \text{ m}.$$

ip diametri $d_n=0,9-1,1$ mm

$$d_n=0,3d_n=0,3 \cdot 0,9=0,27, \text{ m},$$

$$d_n=0,4d_n=0,3 \cdot 1,1=0,44, \text{ m}.$$

Qiyatlardan foydalangan holda N_H ning qiymatini topamiz:

ip diametri $d_n=0,9$ mm bo'lganda

$$N_H = \frac{1225}{(0.9 + 0.27)} = 1047, \text{ dona},$$

ip diametri $d_n=1,1$ mm bo'lganda


$$N_H = \frac{1225}{(1,1 + 0,44)} = 795, \text{ dona}.$$

Solishirma bug'laniш yuzasini $d_n=0,9-1,1$ mm uchun quyidagicha topiladi:

$$L_{ucn} = N_H \pi d_n = 1047 * \pi * 0,9 = 2960 \text{ sm}^2$$

$$L_{ucn} = N_H \pi d_n = 795 * \pi * 1,1 = 2748 \text{ sm}^2$$

3.3-rasmda ko'rsatilganidek qorako'l terini quritish sifatini yaxshilash uchun yarim silindriк tokcha taklif etiladi. 3.8-rasmda terining kichik elementini tokchaning elementar qismiga mahkamlanish sxemasi keltirilgan [46; 68-72-b.].



3.8-rasm.Teri elementining yarim silindriк tokchaga mahkamlash hisobiy sxemasi

Teri elementining tashqi qatlamiga quyidagi kuchlar ta'sir qiladi:

- 1. prujinaning tortish kuchi;
- 2. prujina tortish kuchining tangensial tashkil etuvchisi;
- 3. prujina tortish kuchining normal tashkil etuvchisi;
- 4. terini siqib tortish.

Terining ichki qatlamiga ham xuddi shunday kuchlar ta'sir qiladi.

Tokchuning berilgan qismining ichki va tashqi qatlamlarida teri elementini

turish hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi \vec{F}_{uu} hisobiga amalga oshadi [46; 68-72-b].

Terini qo'zg'almaslik sharti hamda birlamchi holatini saqlab qolish tenglamadan topiladi:

tashqi qatlamda

$$\overline{F_{uu,n}} + \overline{F_{m,n}} \geq \overline{F_{cm,n}}, \quad (3.7)$$

ichki qatlamda

$$\overline{F_{uu,s}} + \overline{F_{m,s}} \geq \overline{F_{cm,s}}, \quad (3.8)$$

$\vec{F}_{cm,u}$ va $\vec{F}_{cm,s}$ kuchlari orasidagi farq katta bo'lsa teri elementining ichida formatsiya yuzaga keladi.

Ishqalanish kuchi prujina tortish kuchi normal tashkil etuvchisining yamalariga bog'liq bo'lib, terining mo'yna qismi va teri et qatlaming tayanch panjoruga va matoga yopishish xususiyati funksiyasi bo'ladi [46; 68-72-b.].

Prujina tortish kuchining normal tashkil etuvchisi (normal kuch) qiymati bo'miy emas, uning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\vec{F}_n + \vec{F}_{np} \sin \alpha, \quad (3.9)$$

bunda α – prujina ta'siri yo'nalishi bilan tayanch panjara sirtiga urinma orasidagi burchak, grad.

Teri sirtining chekka nuqtalarida normal kuch qiymatlari o'rta qismlariga nisbatan ancha kichik, shuning uchun chekka qismlarda hajmiy kirishish o'rta

qismlarga nisbatan katta qiyatlarga ega bo‘ladi. Terining hajmiy kirishi kamaytirish uchun quyidagi shartni ta’minlash kearak bo‘ladi [46; 68-72-b.].


$$\alpha_{kp} > 0, \quad (3.10)$$

bunda α_{kp} – terining chekka qismlaridagi prujina ta’siri yo‘nalishi va tayanch panjara sirtiga urinma orasidagi burchak, grad.

3.4. Gelioquritgichning parametrlarini asoslash

Quritish jarayonida energiya sarfini kamaytirishning yo‘llaridan tiklanuvchan energiya manbalarini qo‘llashdir. Respublikamizda bunday manbalardan biri quyosh radiatsiyasidan samarali foydalanish hisoblanadi. Qorako‘lchilik xo‘jaliklarida qorako‘l terilarni birlamchi qayta ishlash mavsumida gidrometeorologik ko‘rsatkichlar tahlili 3.1-rasmda keltirilgan. Bu mavsum fevral oyining ikkinchi yarmi va mart oylariga to‘g‘ri keladi. Tahlillar asosida ushbu mavsumda gelioquritkichlardan foydalanish imkoniyati mavjud ekanligi aniqlanadi [44; 102-b, 50; 300-b, 121; 52-b.].

